

SHARG‘UN KO‘MIR KONI ISTIQBOLLARI

Sharipov Xamroz Tolib o‘g‘li

Termiz muhandislik-texnologiya instituti
Neft gaz va konchilik ishi kafedrası
Asistent

Xurramov Asliddin Karim o‘g‘li

Termiz muhandislik-texnologiya insituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ko‘mir sanoati — yoqilg‘i sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko‘mir sanoati ko‘mirni qazib olish (ayrim hollarda boyitish, briketlash) va iste‘molchilarga yetkazib berish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ko‘mir qazib olishning eng afzal va samarali usuli uni ochiq usulda, karyerlardan qazib olish hisoblanadi. Ko‘mir koni chuqurda joylashgan bo‘lsa, u yopiq (shaxta) usulida qazib olinadi. Hozirgi paytda ko‘mirni tejamli gidravlik usulda qazib olish keng qo‘llanilmoqsa. Ko‘p holdarda ko‘mir yer tagida to‘g‘ridan to‘g‘ri gazga aylantirish yo‘li bilan iste‘molchilarga bevosita quvurlar orqali uzatiladi.

***Kalit so‘zlar:** ko‘mir, modernizatsiya, karbit, briket, kompleks, shaxta.*


Qadimda ko‘mir yer tagida to‘g‘ridan to‘g‘ri gazga aylantirish yo‘li bilan iste‘molchilarga bevosita quvurlar orqali uzatiladi. Keng miqyosda foydalanish va Ko‘mir sanoatining tarmoq sifatida vujudga kelishi 18-asr ning 2-yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu paytda qazib olingan ko‘mirdan Angliyada cho‘yan eritishda foydalana boshlandi. Qadim zamonlarda ko‘mir oddiy usulda qazib olingan va yoqilg‘i sifatida foydalanilgan. Ko‘mir tuzilishiga keladigan bo‘lsak, yonuvchi organik tog‘ jinslariga mansub modda hisoblanib dunyoda ko‘mirni 3 xil turi mavjud va bular: 1) toshko‘mir, 2) qo‘ng‘ir ko‘mir, 3) antraseb ko‘mir. Ko‘mir haqida gaplashar ekanmiz avvalom bor uning tarixi haqida bilmog‘imiz lozim. Ko‘mir yer shari taraqqiyotining turli davlarida hosil bo‘lgan Ko‘mir paydo bo‘lishining eng uzoq davom etgan bosqichi bundan 250 000 000 yil ilgari boshlangan va taxminan 35 000 000 yil davom etgan Pensilvan davriga to‘g‘ri keladi.. Yer ostidagi ko‘mirning qolgan qismi bir million yildan 100 million yilgacha muqaddam shakllangan. Ko‘mir Yer qobig‘ida tog‘ jinslari orasida uzunligi bir necha kilometrgacha va qalinligi uch metrgacha bo‘lgan qatlam holida joylashgan. Bir zamonlarga kelib, ular halokatga yuz tutgan va botqoqlar qa‘riga

cho'kkan. Bu ularni chirib ketishdan saqlab qolgan. Bakteriyalar daraxtlarning ayrim qismlarini qayta ishlagan, ulardan paydo bo'lgan gaz havoga uchgan. Daraxtlarning asosan ugleroddan iborat qora kuyindi qismi ajralib qolgan. Keyinchalik xuddi shu qism ko'mir qatlamiga aylangan. Daraxtning ko'mirga aylanishi uchun necha ming yillar talab qilinadi. Ko'mir daraxtdan paydo bo'lganligi oson tasdiqlanadi. Ko'mirning qanday paydo bo'lishi haqida gaplashdik. Ko'mirning hozirgi ahamiyatiga katta e'tibor beraydigan bo'lsak hozirda ko'mir sanoati katta ahamiyatga ega hisoblanadi. **Ko'mir sanoati** — yoqilg'I sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'mir sanoatining ko'mirni qazib olish (ayrim hollarda boyitish, briketlash) va iste'molchilarga yetkazib berish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ko'mir qazib olishning eng afzal va samarali usuli uni ochiq usulda, karyerlardan qazib olish hisoblanadi. Ko'mir konlari chuqurda joylashgan bo'lsa, u yopiq (shaxta) usulida qazib olinadi. Hozirgi paytda ko'mirni tejamli gidravlik usulda qazib olish keng qo'llanilmoqda. Ko'p hollar 19-asrdan boshlab ko'mir transport sohasida keng ko'lamda ishlatila boshlandi. 20-asr boshlarida ko'mir insoniyatning yoqilg'iga bo'lgan ehtiyojining 70% ini qondirgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ushbu ko'rsatkich 20—25% dan oshmaydi. Uning o'rnini tabiiy gaz va neft egallamoqda. Jahondagi 60 mamlakatda ko'mir qazib chiqariladi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki O'zbekistonda ham eng yirik ko'mir konlari mavjud. Ushbu ko'mir konlarning eng yiriklari qatoriga Sharg'un hamda Angren ko'mir konlarini kiritishimiz mumkin.

Sharg'un ko'mir koni. O'zbekiston hududida ham yoqilg'i zaxiralarini aniqlash uchun geologiya-qidiruv ishlari olib borilganda Toshkent va Surxandaryo viloyatlarida katta ko'mir konlari borligi aniqlangan. Ayniqsa Ohangaron va Sharg'un da topilgan ko'mir konlari katta sanoat ahamiyatiga ega edi. Sharg'un ko'mir koni - Surxandaryo viloyatidagi kon. Hisor tog' tizmasining jan.g'arbiy tarmog'ida joylashgan. 1941-yilda ochilgan. Sharg'un ko'mir konik. quyi va o'rta yura davriga mansub ko'mirli yotqiziqlar ichida topilgan. Quyi hamda o'rta yura yotqiziqlari ko'mirga boy. Ko'mir yotqiziqlarining umumiy qalinligi 26 m. Sharg'un ko'mir konik, eng yirik qatlamining qalinligi 12,5 m; qatlamlarning o'rtacha qalinligi 4,6 m. Sharg'un ko'mir konik. da ko'mir qatlamining yotish burchagi bo'ylab tektonik harakatlar sodir bo'lishi natijasida ko'p miqdorda maydalangan ko'mir uchraydi. Sharg'un ko'mirining yonish quvvati 5690—7302 kkal/kg; o'z-o'zidan yonmaydi, hajmi 1,35 t/m³, qattiqlik jihatidan 2sinfga mansub. Sharg'un ko'miri — toshko'mir bo'lsa ham maydaroq va yumshoqroq, yengil tozalanadi, fabrikada briketlanib, iste'molchilarga yuboriladi. Sharg'un ko'mir konik. ning zaxirasi 36 mln. t. Yiliga 50 ming t ko'mir qazib olinadi. Sharg'un ko'miri karbid olish uchun xom ashyo hisoblanadi.



Hozirgi kunga kelib ko‘mirga ehtiyoj ko‘paygani uchun O‘zbekistonda ko‘mirga talab shu yilning o‘zida 1,5 baravarga oshirish kutilmoqda. Shuni hisobiga olib, shu yilda ko‘mir qazib chiqarish 5,3 million tonnadan 6,5 million tonnaga olib chiqilishi kutilmoqda. Hozirgi kunda “Sharg‘unko‘mir”AJ korxonasi konni yanada rivojlantirish uchun modernizatsiya qilish bo‘yicha investitsiya loyhasi doirasida Tog‘ kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Xitoyning “Amikam” kompaniyasi o‘rtasida kelishuv imzoladi. Shartnoma yer osti ko‘mir qazib olish majmualarini (Markaziy Osiyodagi eng yirik ko‘mir konlari qatorida) ekspluatatsiya qilish uchun yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, shuningdek mahalliy mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutadi.



Sharg'un ko'mir koni O'zbekistondagi ko'mir sanoatida ham ahamiyatga ega. Asosan ko'mir sanoati usulida qazib olish O'zbekistonda 1930 yilda oxirlarida boshlangan ayni shu vaqtda ham Shaeg'un ko'mir koni,Boysun toshko'mir koni, Angren ko'mir koni ochilgan. «Sharg'un ko'mir» AJ asosan SSSSH markali toshko'mir qazib chiqaradi, fraksiyasi 13 mm, kaloriyasi 8100 kkal/kg. Yillik quvvati – 100 ming tonna, aniqlangan ko'mir zahirasi – 35,6 mln.tonnani tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 17 noyabrdagi PQ-2264 sonli va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 6-iyundagi 161-sonli qarorlariga asosan 101,3-mln dollar (o'z mablag'lari 11,8 mln dollar, Xitoy Eksimbanki krediti-89,5 mln.dollar) miqdorida investitsiya jalb qilish hisobidan «Sharg'un ko'mir» aksiyadorlik jamiyatini modernizatsiya qilish loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda O'zbekiston tabiiy boyliklardan, xususan yoqilg'i sanoati muhumi hisoblangan neft, gaz va ko'mirdan yanada to'laroq va samarali foydalanish respublikaning ishlab chiqarish ixtisodiyoti doirasini ancha hissasini oshirishga imkon yaratdi. Sharg'un ko'mir konida orib borilayotgan modernizatsiya ishlari hamda konning texnik bazasini rivojlantirish ishlari korxonalar istiqboli kelajagining yaqqol dalilidir. Shu o'rinda aytish lozimki Sharg'un ko'mir koni ham yaqin kelajakda mamlakatimiz rivojiga katta hissa qo'shuvchi korxonalar qatorida yuqori o'rinlarni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tomalak S. M., Ugol O'zbekistova, T., 2001.
2. Kahhorov A. O'zbekiston yoqilg'i sanoati 30 yil ichida. – Toshkent: O'zbekiston,1972
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharg%CA%BBun_ko%CA%BBmir_koni